


IX. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

2025-yilning yanvar-mart oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 351,0 mln. AQSH dollari tashkil etgan, jumladan 142,9 mln. AQSH dollarini-eksport, 208,1mln. AQSH dollarini import tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasining saldosi -65,2 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi
(mln AQSH dollari)




So‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi. Jumladan, xom ashyo eksportidan, qo‘shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo‘naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

2025- yil yanvar-mart oylari viloyat tashqi savdo aylanmasida

MDH va boshqa davlatlarning ulushi

(mln AQSH dollar va foizda)



2024- yil yanvar-mart



■ MDH davlatlar ■ Boshqa davlatlar

2025- yil yanvar-mart



■ MDH davlatlar ■ Boshqa davlatlar

2025- yilning yanvar-mart oylarida viloyatda amalga oshirilgan tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,4 % ga, MDH davlatlari 118,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlar 106,1 % ga ko'paygani kuzatildi.

Jumladan, jami eksport aylanmasi 109,9 % ni va shundan MDH davlatlari 115,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlarga 93,8 % ni tashkil etdi.

Jami import aylanmasi 112,4 % ga kamaygan bo'lib, undan MDH davlatlari 123,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, boshqa davlatlar 109,1 % ga ko'paygan.

MDH va boshqa davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi (mln AQSH dollari)

	yanvar-mart		O'sish sur'ati, % da
	2024- yil	2025- yil	
Tashqi savdo aylanmasi	315,1	351,0	111,4
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	138,1	163,1	118,1
Boshqa davlatlar	177,0	187,9	106,1
Eksport	130,0	142,8	109,9
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	96,2	111,1	115,6
Boshqa davlatlar	33,8	31,7	93,8
Import	185,2	208,1	112,4
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	41,9	51,9	123,8
Boshqa davlatlar	143,2	156,2	109,1

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

Viloyatdagi eksport-import tarkibi

	Umumiy hajm mln AQSH dollar		2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan % da
	2024- yil yanvar-mart	2025- yil yanvar-mart	
Eksport tarkibi	130,0	142,9	109,9
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	12,2	17,6	143,6
Ichimliklar va tamaki	0,7	0,7	111,7
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi	3,5	1,6	46,8
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,8	2,4	135,6
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,7	0,8	108,0
Sanoat mahsulotlari	70,6	73,5	104,1
Mashinalar va transport uskunalari	5,1	4,4	86,7
Turli xil tayyor mahsulotlar	32,2	38,2	118,8
Xizmatlar	0,6	1,1	192,2
Boshqalar	2,6	2,2	84,5
Import tarkibi	185,2	208,1	112,4
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	28,2	48,2	170,7
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi	8,7	10,1	4,1 m.
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	3,7	4,5	122,1
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	2,9	2,0	70,2
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	21,9	17,0	77,4
Sanoat mahsulotlari	39,4	59,6	151,4
Mashinalar va transport uskunalari	70,2	45,3	64,6
Turli xil tayyor mahsulotlar	4,2	4,1	99,2
Boshqalar	5,2	16,4	3,1 m.

2025- yil yanvar-mart oylarida eksport qilingan mahsulotlar va xizmatlar tarkibi bo'yicha tahlil qilinganda, (2024- yilning tegishli davriga nisbatan), Mashinalar va transport uskunalari -13,3% kamaygani kuzatildi.

**2025-yil yanvar-mart oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasi
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln AQSH dollari)

Davlatlar nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import
Rossiya Federatsiyasi	116,2	93,5	22,7
Xitoy	103,8	5,0	98,8
Turkiya	17,3	6,4	10,9
Qozog‘iston	17,0	5,4	11,7
Hindiston	12,3	0,2	12,2
Qirg‘iziston	11,3	2,6	8,8
Germaniya	9,7	4,1	5,5
Belarus	9,6	2,4	7,2
Koreya Respublikasi	5,6	0,0	5,6
Pokiston	5,2	4,8	0,4
Indoneziya	4,3	0,0	4,3
Polsha	3,0	1,6	1,4
Tojikiston	3,0	2,7	0,3
Eron	2,9	1,6	1,3
Afg‘oniston	2,9	2,6	0,2
Fransiya	2,7	0,0	2,6
Litva	2,4	0,1	2,3
Malayziya	1,9	0,0	1,9
Ukraina	1,9	1,2	0,6
AQSH	1,8	1,6	0,2

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rmini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 50 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (33,1 %), Xitoy Xalq Respublikasida (29,6 %), Qozog‘istonda (4,9 %), Turkiyada (4,9 %), Qirg‘iziston (3,2 %), Germaniya (2,8 %) va Belorussiya (2,7 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

2025- yil yanvar-mart oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar

Davlatlar nomi	Viloyat tovar aylanmasida ulushi % da	2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan % da
Rossiya Federatsiyasi	33,1	114,1
Xitoy	29,6	115,8
Turkiya	4,9	90,3
Qozog‘iston	4,9	136,1
Hindiston	3,5	57,6
Qirg‘iziston	3,2	112,6
Germaniya	2,8	91,9
Belarus	2,7	158,6
Koreya Respublikasi	1,6	107,5
Pokiston	1,5	3,3 m.
Indoneziya	1,2	3,2 m.
Polsha	0,9	79,1
Tojikiston	0,9	129,5
Eron	0,8	159,4
Afg‘oniston	0,8	3,1 m.

jadval davomi

Davlatlar nomi	Viloyat tovar aylanmasida ulushi % da	2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan % da
Fransiya	0,8	86,3
Litva	0,7	6,7 m.
Malayziya	0,5	93,9
Ukraina	0,5	76,6
AQSH	0,5	5,7 m.
Italiya	0,5	128,2
Vyetnam	0,4	13,1 m.

2025- yil yanvar-mart oylarida jami eksport tovarlari hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)

■ Oziq-ovqat va tirik hayvonlar

■ Ichimliklar va tamaki

■ Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari


■ Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar

■ Ishlab chiqarilgan mahsulotlar

■ Mashina va transport uskunalari

■ Har xil tayyor mahsulotlar

■ Xizmatlar




2025-yil yanvar-mart oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2024- yilning yanvar-mart oylarida amalga oshirilgan eksportning umumiy hajmiga nisbatan sanoat ulushi 51,5 %, har xil tayyor mahsulotlar eksportining ulushi 26,7 % ni hamda oziq ovqat va tirik hayvonlar eksportining ulushi esa 12,3 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar eksporti hajmi 1,1 mln.AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,8 % ni tashkil etib, o'tgan-yilning mos davriga nisbatan 92,2 % ga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, moliyaviy xizmatlaridan iborat.

2025- yil yanvar-mart oylarida jami eksport tovarlari
hajmi shahar va tumanlar kesmida
(ming AQSH dollari)

	yanvar-mart		O'sish sur'ati, % da
	2024- yil	2025- yil	
Viloyat jami	129 960,5	142 862,5	109,9
Namangan sh.	43 502,7	42 631,3	98,0
Mingbuloq	1 738,9	4 502,6	2,6 m.
Kosonsoy	18 929,1	22 818,2	120,5
Namangan t.	5 769,3	6 516,1	112,9
Norin	7 234,2	1 230,1	17,0
Pop	3 694,2	1 350,8	36,6
To'raqo'rg'on	23 936,1	27 090,8	113,2
Uychi	11 487,7	16 629,8	144,8
Uchqo'rg'on	4 867,6	5 688,2	116,9
Chortoq	452,9	1 245,7	2,8 m.
Chust	7 605,7	9 704,2	127,6
Yangiqo'rg'on	559,2	3 401,7	6,1 m.


**2025- yil yanvar-mart oylarida viloyat eksportida
asosiy hamkor davlatlarning ulushi, (% da)**



Viloyatdan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Tojikiston, Turkiya, Pokiston va Germaniya davlatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 85,2 % tashkil qiladi.


Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Tojikiston, Turkiya, Pokiston va Germaniya davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan yengil sanoat mahsulotlari oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**2025- yil yanvar-mart oylarida jami import tovarlari
hajmi shahar va tumanlar kesmida
(ming AQSH dollari)**

	yanvar–mart		O‘shish sur‘ati, %da
	2024- yil	2025- yil	
Viloyat jami	185 182,7	208 145,7	112,4
Namangan sh.	103 855,0	87 383,7	84,1
Mingbuloq	918,6	893,4	97,3
Kosonsoy	5 091,4	7 521,2	147,7
Namangan t.	10 332,0	4 414,5	42,7
Norin	6 033,6	9 019,6	149,5
Pop	4 978,3	39 700,3	8,0 m.
To‘raqo‘rg‘on	21 241,4	10 664,3	50,2
Uychi	9 228,0	9 846,2	106,7
Uchqo‘rg‘on	1 819,5	2 075,7	114,1
Chortoq	8 659,2	16 764,6	193,6
Chust	10 187,0	15 743,2	154,5
Yangiqo‘rg‘on	2 838,7	4 095,7	144,3

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2025- yilning yanvar-mart oylarida amalga oshirilgan importning umumiy hajmiga nisbatan mashina va uskunarlar importining ulushi 21,8 % ni, sanoat mahsulotlari importining ulushi 28,6 % ni, oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi 23,1 % ni hamda kimyoviy moddalar va shunga o‘xshash mahsulotlar importining ulushi esa 8,2 % ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-mart oylarida jami import tovarlari hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)



2025- yil yanvar-mart oylarida viloyat importida asosiy hamkor davlatlar ulishi

2024- yil yanvar-mart oylarida viloyatga 45 ta xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shundan 7 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston, Belarus, Qirg'iziston kabi hamkor davlatlarning jami import hajmi 172,1 mln AQSH dollorga teng. Bu esa umumiy import hajmining 82,7 % ni tashkil qiladi.

